

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА  
САЛОМАТЛИКНИ МУҲОФАЗА  
ҚИЛУВЧИ МУҲИТНИ ЯРАТИШНИНГ  
ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ”**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(2016 йил 29-30-апрел)**



## YOSH AVLOD MA'NAVIY TARBIYASIDA CHET TILLARNING TUTGAN O'RNI

G.S.Hojiyeva - BuxDU o'qituvchisi

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan har bir islohotlar bevosita yosh avlodni har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli etib tarbiyalashga qaratilgan. Shu jumladan, xorijiy tillarni o'qitish masalasi ayni ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon xorijiy tillarni o'qitishga katta etibor berilmoqda. Bu borada 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedya darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chorabirlari to'g'risida"gi Qaroridan so'ng bu sohaga e'tibor yanada kuchaydi. Ushbu qaror chet tillarini o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada yuksaltirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorga muvofiq uzluksiz ta'lif tizimida chet tillarini o'rganishga oid davlat ta'lif standartlari, o'quv reja va dasturlar takomillashtirildi. Xorijiy tillar bo'yicha darslik va o'quv-uslubiy majmualarni modernizatsiya qilish bo'yicha maxsus dastur asosida integrallashtirilgan o'quv rejalar amaliyatga joriy etildi.

Ta'lif muassasalarida chet tillarini o'qitishning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajribani hisobga olgan holda, xorijiy til kabinetiga oid jihozlash me'yorlari ishlab chiqildi. Mazkur yo'nalishda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan yaratilgan «LINGVO X» dasturi tajribadan o'tkazildi. Dastur yordamida lokal tarmoqdagi komputer sinfi lingafonli komputer sinfi sifatida ishlaydi.

Janubiy Koreyaning KOIKA tashkiloti bilan Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetlarining o'quv laboratoriyalari bazasini mustahkamlashga ko'maklashish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda chet tillarini bilish darajasini baholash milliy tizimini yaratish, chet tillar bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus kurs tashkil etildi. Shu asosda ta'lif tizimining barcha bo'g'ini uchun xorijiy tillar bo'yicha trenerlar tayyorlandi. Muloqot muhitini shakllantirish va chet tillarni o'rganishni ommalashtirishda xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy ta'lif muassasalarini bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda keng qamrovli ishlar amalgalashadi.

<https://buxdupuz.uz> Jumladan, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzurida Chet tillarni o'qitishning innovatsion metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amal markazi tashkil etildi. Mazkur markaz xorijiy tillarni o'qitishning zamonaliv uslublarini ishlab chiqish, xalqaro tajribani o'rghanish, ta'lif standartlari va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va tadbiq etish, chet tillarini interfaol o'qitish vositalarini qo'llash hamda masofaviy o'qitishni tashkil etish kabi yo'naliishlarda faoliyat olib bormoqda. [4.]

"Chet tillarni o'rghanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda belgilangan vazifalar mamlakatimizdagi oliy ta'lif muassasalariga katta mas'uliyat yuklaydi. Aytish mumkinki, oliy ta'limdagi nofilologik yo'naliishlarda ta'lif olayotgan talabalarni o'qitishda xorijiy ilg'or tajribalarning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda aynan nofilologik yo'naliishlarda ta'lif olayotgan talabalar orasida xalqaro almashinuv dasturlari, Tempus va Erasmus Mundus loyihalari doirasida Yevropa universitetlarida ta'lif olishlar soni keskin oshmoqda. Erasmus+ dasturi doirasida boshlanishi rejalashtirilayotgan loyihalarda bu son yanada oshishi kutilmoqda. Talabalardan o'snavbatida xorijda o'qish davrida chet tilini yaxshi bilishlari talab etiladi va tilni yaxshi bilish o'z sohalarida ilg'or tajriba va bilimga ega bo'lishlarida muhim hisoblanadi. [2.]

Chet tili, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda tutgan o'mi, o'rghanuvchilar uchun muhimlilik darajasini inobatga olib, chet tilini o'rghanishni quyidagi sxema asosida (tepadan o'ngga) ham izohlash mumkin:



#### Sxemaga izoh:

Tajribadan ma'lumki, inson bir sohani egallashdan avval (masalan, kash tanlashda), unda albatta shu sohaga nisbatan qiziqish bo'lishi lozim, shu jumladan til o'rghanishda ham. Qiziqish ortidan kishida qunt paydo bo'ladi. Chet tillarini o'rghanish o'z navbatida bir qancha murakkabliklarga ega, shu bois u kishidan ulkan sabr va tinimsiz mehnat talab etadi. Bu yo'lida har bir til o'rghanuvchi izlanishlar olib boradi va bir qancha natijalarni qo'lga kiritadi. Anashu natijalar yig'indisi o'rghanuvchi uchun ko'nikmalar manbaini hosil etib, erishilgan yutuqlar keyingi bosqichda amaldı – tajribada qo'llaniladi. Bu jarayonda kishi o'z yutuq va kamchiliklarini xolla baholashi, sarhisob qilishi mumkin. Keyingi bosqich – samarali muloqot, nafaqat o'sustida muntazam ishlash, shu bilan birgalikda kamchiliklarni bartaraf etishni ham kafolatlaydi. Bu jarayonda til o'rghanuvchi uchun doimiy muloqotda bo'lishi mutaxassis yo'l-yo'rqliariga amal qilish, chet elliklar bilan bevosita muloqot qilish, o'rghanilayotgan tilda audio-video vositalardan muntazam foydalanish juda muhimdir.

Boshqa fanlar qatori chet tilida so'zlashish ham intellektual salohiyat belgisi bo'lib hisoblanadi, ayniqsa XXI asr – fan-texnika asrida, O'zbekiston har sohada butun dunyoda o'z o'rniiga ega bo'lib borayotgan bir paytda. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda yurtimizda chet tillari (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, xitoy, koreys, yapon tillari)ni mukammal o'zlashtirib, har jahhada o'zini ko'rsatayotgan yoshlari yon yildan-yilga oshib bormoqda. Bunday yoshlar o'z tengdoshlari orasida shaxsiy o'mak, shaxsiy namuna bo'lib hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini orly etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamma foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni vojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlardan yaratish maqsadida" [1.] hamkatimizda yaratilgan beqiyos imkoniyatlardan foydalanib, hozirgi zamon talabi bo'lgan – chet tillarini o'rganish masalasidan hech kim, ayniqsa, yoshlar chetda olmasliklari, o'z sohasi bilan birga albatta, hech bo'limganda bitta chet tilida mukammal so'zlasha olishlari – O'zbekiston kelajagini yanada yuksaltirish, dunyo hamjamiyatida o'zining muhim strategiyasiga ega bo'lishini ta'minlovchi eng muhim omildir. Zero har bir o'rganilgan til kishiga yangi dunyonи kashf etishda bilimlar saliti vazifasini o'taydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror. Toshkent, 2012 yil 10-dekabr
2. PRESS-RELIZ. Toshkent, 2016 yil 14-15 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Chet tillarni o'zganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.12.2012 yil 240 (5660)-son)
4. [www.aza.uz](http://www.aza.uz)

## O'QUVCHILAR GRAFIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI.

A.R.Shukurov - BuxDU o'qituvchisi

Jamiyat a'zolarining grafik madaniyati darajasi jamiyatning texnik vojlanganlik darajasiga bog'liqligi aniqlangan. Shuning uchun ham O'zbekiston hududida maktablarda ta'lim tizimi shakllanib boshlagan davrdanoq o'quvchilarga shizmachilik asoslari o'rgatila boshlangan. O'zbekiston hududida grafik madaniyatning nazar tashlaydigan bo'lsak, tarixiy arxitektura obidalari, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi na'munalaridagi tasvirlar bu yerda grafik madaniyat qadimdan ham yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. So'ngi ming yillikdagi geometrik va simliksimon naqshlarning yetakchi o'ringa chiqishida islom dinining ta'qiqlari va begaralashlari aks etgan bo'lsa ham, ularda xalq badiiy ijodiyoti namunalari hunarmandchilik, qurilish ishlari va amaliy fanlarning yuksak yutuqlari nomoyon bo'lgan.

фукаролик маданиятиниң роли .....	264
<b>НЕ'МАТОВ В.С.</b> Ma'naviy yetuk, jismoniy barkamoi yoshlarga ta'lif-tarbiya berishda sog'lom turmush tarzining o'rni .....	264
<b>АМЕТОВ Т.А.</b> Баркамол авлод тарбиясида "Камолот" ёшлар ижтимоий харакатининг тутган ўрни .....	266
<b>НЕФЕДОВА Н.А.</b> Музикальное искусство как средство воспитания детей .....	268
<b>КРАВЧУК В. И.</b> Физкультурное образование студентов в социокультурном пространстве ВУЗа .....	271
<b>TOSHEVA D., TOSHEVA D.</b> „Saddi iskandariy“ostonida ta'lif-tarbiya masalasi	276
<b>БЕКМУРОДОВ А., МАТЕҚҰБОВА М.</b> Успирин ўкувчиларни интеллектуал ижодий салохиятини ривожлантириш .....	278
<b>ДЖУМАЕВА Н. Э., ХҮЖАЁРОВА Н.</b> Шарқ мутафаккирлари илмий мерссининг маънавий етук авлод тарбиясидаги аҳамияти .....	280
<b>СИДДИКОВ И., НАЗАРОВ М.</b> Интеллектуал етуклик - баркамол авлоднинг муҳим жиҳати .....	282
<b>НОРПУЛАТОВА Х.А., АМОНҚУЛОВА З.З.</b> Маънавий етук шахсни тарбиялашда ўқитувчи-тарбиячининг касбий маҳорати .....	285
<b>БАКАЕВ Ш.Ш.</b> Халқ амалий безак санъати талабалар эстетик дунёкарапини шакллантириш омили .....	286
<b>НОЖИЕВА Г.С.</b> Yosh avlod ma'naviy tarbiyasida chet tillarning tutgan o'rni .....	289
<b>SHUKUROV A.R.</b> O'quvchilar grafik madaniyatini shakllantirishda mustaqil ishlarni tashkil qilishning ahamiyati .....	291
<b>JO'RAYEVA L.R.</b> Ma'naviy meros va sog'lom avlod tarbiyasi .....	293
<b>SHAMSIYEVA M., MUSINOVA A.S.</b> Ma'naviy etuklik -vatan tayanchi .....	295
<b>АДИЗОВА Н.З., МАРДОНОВ Б.Б.</b> Маънавий етук ёшларни тарбиялашда маънавий-маданий меросимиз аҳамияти .....	297
<b>БАРОТОВА Э., ЭРГАШЕВА Г., ҚҰЧҚОРОВА Н., БОЗОРОВА Д.</b> Оилада маънавий-ахлоқий тарбия жараёнининг моҳияти .....	299
<b>УМАРОВ Б.Ж., ҲАМРОЕВ С.С.</b> Бола тарбияси, камолоти, ривожланишининг ёш ва ўзига хос хусусиятлари .....	302
<b>BOLTAEVA D.A.</b> Barkamol avlod rivojlanishida sog'lom muhit .....	304
<b>ҒАНИЕВ М., САИДОВА Г., ТОШЕВА Г., ҒАНИЕВА Г.</b> Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit .....	306
<b>ДЕҲҚОНОВ Б.Б.</b> Соғлом авлод тарбиясида глобаллашув ва ахборот хуружларининг таъсири .....	308
<b>ИБРАГИМОВ М.Б.</b> Жисмоний тарбия ва спорт баркамол авлод тарбиясининг муҳим шарти .....	310
<b>ҚУДРАТОВ Ш.Ә.</b> Ёш авлодни тарбияси ва маънавий, маданий мероз .....	312
<b>ИБРАГИМОВ М.Б.</b> Ёшлар хаётидаги жисмоний тарбия ва спортнинг аҳамияти ..	313
<b>AVLIYOQULOV M.M.</b> ma'naviy barkamol inson tarbiyasida tasviriy va amaliy san'atining o'rni .....	316
<b>РАҲМОНОВА М.Б.</b> Баркамол авлод тарбиясида соғлом турмуш тарзи .....	318
<b>ҲАМРАЕВ Б.Т.</b> Маънавий етук жисмоний баркамол ёшлар таълим тарбиясининг замонавий йўналишлари .....	320
<b>УМАРОВ Б.Ж., ЖАББОРОВА Д.</b> Ўкувчи ёшларнинг баркамол шахс бўлиб шаклланшида маънавий-ахлоқий тарбиянинг ўрни .....	322
<b>МИРЗАҚОБИЛОВ А.Д.</b> Маънавий – маърифий ишларни ташкил этишнинг	324